



Dildora MAMADALIYEVA,
Doktorant, Namangan davlat chet tillari instituti, Namangan, O'zbekiston
Emil:mamadaliyevad138@gmail.com

NamDU professori, f.f.d B.Jafarov taqrizi asosida

OTA VA FARZAND MUNOSABATLARI BADIY TALQINIDA MILLIY MENTALITET VA MADANIY KODLARNING O'RNI

Annotatsiya

Qiyosiy adabiyotshunoslikda ikki til madaniyatning ahamiyati beqiyos bo'lib ular tadqiq etilayotganda mentalitet va madaniy kodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mentalitet-ma'lum bir millatning, jamiyatning tafakkur doirasini, haytoni qanday tahlil etishini va a'zolarining ruhiy quvvatini aks ettiradi. Madaniy kod-ma'lum bir xalqning milliy - madaniy qiyofasini ochishda kalit vazifasini bajaradi. Quyida ota va farzand munosabatlarining badiiy talqinida milliy mentalitet hamda madaniy kodlarning o'rni tahlil qilinadi. **Kalit so'zlar:** ota va farzand munosabatlari, milliy mentalitet, madaniy kod, qiyosiy adabiyotshunoslik, oilaviy qadriyatlar, avlodlararo munosabatlar, milliy o'zlik, badiiy talqin, individualizm, oilaviy birdamlik.

THE ROLE OF NATIONAL MENTALITY AND CULTURAL CODES IN THE LITERARY REPRESENTATION OF PARENT - CHILD RELATIONSHIPS

Annotation

In comparative literary studies, the significance of two linguistic and cultural traditions is invaluable, and when they are examined, mentality and cultural codes play a crucial role. Mentality reflects the way a particular nation or society thinks, interprets life, and expresses the spiritual and psychological characteristics of its members. Cultural code serves as a key to revealing the national and cultural identity of a people. The following discussion analyzes the role of national mentality and cultural codes in the artistic interpretation of parent-child relationships.

Keywords: parent-child relationships, national mentality, cultural code, comparative literature, family values, intergenerational relations, national identity, literary interpretation, individualism, family solidarity.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА И КУЛЬТУРНЫХ КОДОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОСМЫСЛЕНИИ ДЕТСКО-РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ.

Аннотация

В сравнительном литературоведении значение двух языковых и культурных традиций трудно переоценить, и при их исследовании особую роль играют менталитет и культурные коды. Менталитет отражает особенности мышления определённого народа или общества, способы осмысления жизни, а также духовно-психологические качества его представителей. Культурный код выступает ключом к раскрытию национально-культурного облика народа. Ниже рассматривается роль национального менталитета и культурных кодов в художественной интерпретации отношений между родителями и детьми.

Ключевые слова: отношения родителей и детей, национальный менталитет, культурный код, сравнительное литературоведение, семейные ценности, межпоколенческие отношения, национальная идентичность, художественная интерпретация, индивидуализм, семейное единство.

Kirish. Adabiyot millatning ma'naviy o'lchovi uning qadriyatlar va dunyoqarashini aks ettiruvchi eng kuchli ijtimoiy madaniy vositadir. (A. Qodirov) [1] shunday ekan bir xalq adabiyotini o'rganish jarayonida uning mentaliteti va madaniy kodlarini tadqiq qilmaslikning iloji yo'q.. Ayniqsa, badiiy asarlarda insoniy munosabatlarning aks etishi milliy mentalitet va madaniy kodlarning namoyon bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ota va farzand munosabatlari esa har bir xalqning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, oilaviy an'analari va tarbiya tamoyillarini o'zida mujassamlashtirgan universal mavzulardan biridir. Qiyosiy adabiyotshunoslikda mazkur munosabatlarning badiiy talqinini tadqiq etish orqali turli xalqlarning oilaga, avlodlar davomiyligiga, ota-onaga hurmat va farzand mas'uliyatiga bo'lgan qarashlarini aniqlash mumkin. Bunda milliy mentalitet qahramonlarning fikrlashi, xatti-harakati va hayotiy pozitsiyasini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'lsa, madaniy kodlar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlarini, marosimlari, ramzlari va qadriyatlarini badiiy matnga singdiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Mazkur maqolaning

maqsvadi ota va farzand munosabatlarining badiiy talqinida milliy mentalitet hamda madaniy kodlarning o'rni aniqlash, ularning qahramonlar xarakteri va asar g'oyaviy mazmunini shakllantirishdagi rolini yoritishdan iborat. Shu asosda badiiy matnda aks etgan oilaviy qadriyatlar va milliy-madaniy xususiyatlarining badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Mentalitet (nemischa mentalität lot.mens, mentis – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxslarning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati. Mentalitet – xalq mentalligini, uning aqliy va ruhiy quvvatining ichki tuzilishini va differentsiatsiyasini aks ettiradigan kategoriya. Mentalitetlar turli mashtablardagi lingvomadaniy jamoalarning psixolingvo intellektlarini namoyon qiladi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos an'analari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi"[2]

«Mentalitet» atamasi garchi nisbatan ancha keyin – XX asr boshlarida paydo bo'lgan bo'lsa ham, mohiyatan unga o'xshash tushunchalar haqida antik davr faylasuflari tomonidan ba'zi fikrlar bildirilgan. Masalan, Aristotel turli xalqlar fe'l-atvoridagi o'ziga xoslik ularning ijtimoiy-siyosiy tuzumiga bog'liqdir, degan qarashlarni bayon qilgan. Fransuz faylasufi Sh. Monteskiy (XVIII asr) Sharq va G'arb xalqlari fe'latvoridagi o'ziga xoslikni ular yashab turgan iqlimga bog'lab talqin etadi va «issiq iqlimli mamlakatlarning xalqlari qariyalardak jur'atsiz, sovuq mamlakatlar xalqlari esa yoshlar kabi dadil bo'ladilar», degan fikrlarni bildiradi [3].

Mentalitet – «operatsion tizimlar, ko'pincha bir-biriga zid bo'lishi bilan birga jamiyatdagi odamlarning xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari va tafakkurini belgilovchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi» [4].

XX asrda fanlarning ma'lum bir bosqichida olimlarning «madaniy kod» tushunchasiga qiziqishi paydo bo'ldi va bu, avvalo, Yuri Lotman [9], Roland Barthes [10] va Umberto Eco [11] kabi uch nafar yevropalik olimlar bilan bog'liq edi. Har bir olim madaniy kodlar haqida gapirganda o'ziga xos falsafiy-teoretik asoslardan kelib chiqqan, milliy madaniyat fenomenlarini tadqiq qilgan va boshqa olimlar bilan doimiy hamda ochiq munozarada bo'lar ekan, o'ziga xos, original xulosalarga kelgan.

«Madaniy kod» konseptini tavsiflovchi eng nufuzli manbalardan biri Yu. Stepanovning «Konstantalar: rus madaniyati lug'ati» asaridir [12]. Unda olim konseptni metaforik tarzda «inson ongidagi madaniyatning quyqasi», «insonning ruhiy olamidagi madaniyatning asosiy hujayrasi» deb ta'riflaydi. Yu. Stepanovning fikricha, konsept murakkab tuzilishga va o'ziga xos etimologiyaga ega bo'lib, u konseptni o'rganish jarayonida avvalo uning shakllanish tarixini, so'ng esa ichki tuzilishini aniqlash zarurligini belgilab beradi [13].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ota va farzand munosabatlarining badiiy talqinida milliy mentalitet hamda madaniy kodlarning o'rnini aniqlash maqsadida qiyosiy adabiyotshunoslikning zamonaviy metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini mentalitet, madaniy kod, lingvomadaniyat va qiyosiy adabiyotshunoslikka oid ilmiy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, tavsifiy (deskriptiv) metod asosida mentalitet va madaniy kod tushunchalarining ilmiy talqinlari o'rganildi hamda ular bilan bog'liq nazariy manbalar tahlil qilindi. Ushbu metod orqali tadqiqot mavzusining nazariy asoslari yoritilib, milliy mentalitet va madaniy kodlarning adabiy matndagi vazifalari aniqlandi.

Qiyosiy-tahliliy metod yordamida ingliz va o'zbek adabiyotida ota va farzand munosabatlarini aks ettiruvchi badiiy asarlar o'zaro solishtirildi. Jumladan, Uilyam Shekspirning «King Lear», D.H. Lourensning «Sons and Lovers», Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» hamda O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asarlaridagi ota-farzand munosabatlarini tahlil qilinish, ularda aks etgan milliy qadriyatlar, oilaviy an'analar va madaniy xususiyatlarining umumiy hamda farqli jihatlari aniqlandi.

Germenevtik metod asosida badiiy matnlardagi ramzlar, obrazlar, dialoglar va qahramonlar xatti-harakatlari talqin qilindi. Ushbu metod ota va farzand munosabatlarining yashirin ma'no qatlamlarini ochishga, shuningdek, asarlarda ifodalangan milliy dunyoqarash va madaniy qadriyatlarni aniqlashga xizmat qildi.

Madaniyatlararo tahlil metodi yordamida ingliz va o'zbek xalqlariga xos oilaviy munosabatlar, tarbiya tamoyillari, ota-onaga hurmat, avlodlar davomiyligi hamda individualizm va kollektivizm kabi tushunchalarning badiiy ifodasi o'rganildi. Bu metod turli madaniyatlarda ota va farzand

munosabatlarining o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, matnshunoslik va interpretatsion tahlil usullaridan foydalanilib, tadqiqot uchun tanlangan asarlardan olingan parcha va sitatalar mazmunini jihatdan sharhlendi. Natijada ota va farzand munosabatlarining badiiy talqinida milliy mentalitet hamda madaniy kodlarning namoyon bo'lish mexanizmlari aniqlanib, ularning asar g'oyasi va qahramonlar xarakterini shakllantirishdagi o'rni yoritildi.

Tahlil va natijalar. Milliy mentalitet badiiy asarlarda qahramonlarning oilaviy munosabatlari, qadriyatlar va hayotiy tanlovlari orqali namoyon bo'ladi. Ota va farzand munosabatlarining talqinida ingliz va o'zbek adabiyotlari o'rtasida muayyan farqlar kuzatiladi.

Masalan, Uilyam Shekspirning «King Lear» tragediyasida Lirning qizlari Goneril va Regandan mehruhubbati izlab, davlatini ularga bo'lib berishi, biroq keyinchalik ular tomonidan rad etilishi G'arb mentalitetidagi shaxsiy manfaat va individual qarashlarning oilaviy rishtalardan ustun qo'yilishi mumkinligini ko'rsatadi. Kordeliyaning esa otasiga sodiq qolishi oilaviy sadoqatning yuksak namunasi sifatida talqin qilinadi. Asarda ota va farzandlar o'rtasidagi ziddiyat markaziy konflikt tashkil etadi [5].

D. H. Lourensning «Sons and Lovers» romanida bosh qahramon Pol Morelning ota-onasi bilan munosabatlari orqali ingliz jamiyatidagi individualizm va shaxsiy o'zlikni anglash masalalari yoritiladi. Polning onasiga kuchli bog'liqligi hamda mustaqil hayot qurishga intilishi avlodlararo munosabatlarining murakkabligini namoyon etadi [6].

O'zbek adabiyotida esa ota va farzand munosabatlari ko'proq hurmat, mas'uliyat va oilaviy birdamlik tamoyillari asosida tasvirlanadi. Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida Yusufbek hoji va Otabek munosabatlari bunga yorqin misol bo'la oladi. Otabek ayrim masalalarda otasidan farqli fikrda bo'lsa-da, unga nisbatan hurmat va ehtiromni saqlab qoladi. Yusufbek hojining farzandi taqdiri uchun qayg'u urishi esa o'zbek oilalariga xos otalik mas'uliyatini ifodalaydi [7].

Shuningdek, O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asarida ota-ona va farzand o'rtasidagi mehruhubbati, fidoyilik hamda ma'naviy bog'liqlik tasvirlanadi. Asarda oiladagi tarbiya, kattalarga hurmat va ota-ona roziligin olish kabi qadriyatlar o'zbek mentalitetining asosiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi [8].

Demak, ingliz adabiyotida ota-farzand munosabatlari ko'proq shaxs erkinligi va individual tanlovlar bilan bog'liq holda talqin qilinsa, o'zbek adabiyotida oilaviy birdamlik, ota-onaga hurmat va avlodlar davomiyligi g'oyalari ustuvor ahmiyat kasb etadi. Bu holat har ikki xalq mentalitetining badiiy matnda o'ziga xos tarzda aks etishini ko'rsatadi.

«Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar [7].» O'tkan kunlar romanidan olingan bu parcha o'zbek xalqining tarixiy xotira va ajdodlar tajribasiga tayanish kabi madaniy kodini ifodalaydi.

Kecha va Kunduz asradagi «Ozodlik shunday ne'matki, uning qadrini yo'qotgan biladi.» Asarda milliy o'zlik, erkinlik va ma'rifat g'oyalari madaniy kod sifatida namoyon bo'ladi [14].

Pride and Prejudicedan [15] olingan «It is a truth universally acknowledged, that a single man in possession of a good fortune, must be in want of a wife.» («Barcha tan olgan haqiqat shuki, boy va bo'ydoq erkak albatta xotin izlaydi.») bu sitata XIX asr ingliz jamiyatidagi nikoh va ijtimoiy mavqe madaniy kodlarini aks ettiradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot davomida o'zbek va ingliz adabiyotidagi madaniy kodlarning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, madaniy kod

xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatları, urf-odatları va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Adabiy asarlarda madaniy kodlar qahramonlar xarakteri, ramzlar, an'analar va til birlikları orqali namoyon bo'ladi.

Tahlil qilingan o'zbek asarlarida oila, mahalla, kattalarga hurmat, milliy an'analar va ma'naviy qadriyatlar asosiy madaniy kodlar sifatida namoyon bo'ldi. Ingliz adabiyoti namunalarida esa individualizm, ijtimoiy mavqe, erkinlik, shaxsiy tanlov va axloqiy mas'uliyat kabi madaniy kodlar ustuvor ekanligi aniqlandi.

Qiyosiy tahlil natijasida har ikki adabiyotda madaniy kodlar milliy o'zlikni ifodalashga xizmat qilishi bilan o'xshashligi, biroq ularning mazmuni va ifodalanish shakllari tarixiy hamda ijtimoiy sharoitlarga ko'ra farqlanishi ma'lum bo'ldi. Shunday qilib, madaniy kodlarni o'rganish adabiy asarlarning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash hamda turli xalqlarning madaniy qadriyatlarini qiyosiy tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Qodirov A. Adabiyot va milliy ma'naviyat. – Toshkent: Fan, 2017.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005.
3. Atamuratova F.S. Mustaqillik sharoitida o'zbek milliy mentalitetida etnomadaniy jarayonlar: filologiya fanları nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2010.
4. Огурцов А.П. Трудности анализа ментальности // Вопросы философии. – 1994. – №1. – С. 50–53.
5. Shakespeare W. King Lear. – London: Arden Shakespeare, 2005. (Original work published 1606).
6. Lawrence D.H. Sons and Lovers. – London: Penguin Classics, 2003. (Original work published 1913).
7. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
8. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.
9. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. – Москва: Языки русской культуры, 1996.
10. Барт Р. Империя знаков. – Москва: Праксис, 2004.
11. Эко У. Отсутствующая структура. Введение в семиологию. – Санкт-Петербург: Петрополис, 1998.
12. Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры. – Москва: Академический проект, 2004.
13. Ismatullayeva N. Madaniy kod tushunchasi va uning nazariy asoslari // Results of National Scientific Research International Journal. – 2025. – Vol. 4, Issue 8.
14. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Sharq nashriyoti, turli nashrlar.
15. Austen J. Pride and Prejudice. – London: Penguin Books, 2003.
16. Shakespeare W. Hamlet. – London: Arden Shakespeare, turli nashrlar.